

B-01-15/501
13.10.2025-yil



“TASDIQLAYMAN”
Qashqadaryo viloyati
hokimi

M.Azimov

2025-yil 13-oktabr

**Viloyat hokimligida o‘tkazilgan yig‘ilish
BAYONI**

Raislik qiluvchi: M.Azimov – viloyat hokimi

Qatnashdilar: viloyat hokimining tarmoqlar bo‘yicha o‘rinbosarlari, maslahatchilari, guruh rahbarlari, kotibiyat mudirlari, mas‘ul xodimlari, boshqarma va tashkilotlar rahbarlari, shahar va tumanlar hokimlari (ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI:

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri rahbarligida 2025-yil 26-sentabrda “21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kunini mamlakatimizda keng nishonlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” o‘tkazilgan majlisning 176-son (VM 24/25-176) bayoni ijrosi haqida

(Azimov, Qobilov, Zakirov, Egamov, Karomova, To‘rayev, Oripov, Movlanov, Xolboyev, Nabiyeu, Abdiyev, To‘ychiyev... Azimov)

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri rahbarligida 2025-yil 26-sentabrda “21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kunini mamlakatimizda keng nishonlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” o‘tkazilgan majlisning 176-son (VM 24/25-176) bayoni ijrosini ta‘minlash maqsadida, kun tartibidagi masala yuzasidan bildirilgan taklif va fikr-mulohazalarni inobatga olib, yig‘ilish

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri rahbarligida 2025-yil 26-sentabrda “21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kunini mamlakatimizda keng nishonlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” o‘tkazilgan majlisning 176-son (VM 24/25-176) bayoni (keyingi o‘rinda – Bayon deb ataladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Bayonga ko‘ra, Respublika Madaniyat vazirligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasining 21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kunini (keyingi o‘rinlarda – bayram tadbirlari) mamlakatimiz bo‘ylab keng nishonlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar haqidagi axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinganligi inobatga olinsin.

3. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 36 yilligi hamda 21-oktabr – O'zbek tili bayrami kuniga (keyingi o'rinlarda – bayram tadbirlari) tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha viloyat tashkiliy qo'mitasining (keyingi o'rinlarda – tashkiliy qo'mita) tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Tashkiliy qo'mitaga bayram tadbirlarini yuksak saviyada tashkil etish, mazkur bayonda belgilab berilgan vazifalar o'z vaqtida, sifatli va to'liq amalga oshirilishini muvofiqlashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri rahbarligida 2025-yil 26-sentabrda "21-oktabr – O'zbek tili bayrami kunini mamlakatimizda keng nishonlash chora-tadbirlari to'g'risida" o'tkazilgan majlisning 176-son (VM 24/25-176) bayoni ijrosini ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlar rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Shahar va tumanlar hokimliklari:

O'zbek tili bayrami kunini hududlarda keng nishonlash va bayram tadbirlarini madaniyat va san'at saroylari, teatrlar binolarida tantanali o'tkazish, shuningdek, istirohat bog'lari, xiyobonlar, amfiteatrlarda va boshqa ochiq maydonlarda umumxalq sayli ko'rinishida tashkil etish;

ona tilimizni ulug'lovchi targ'ibot materiallari, ixcham videoroliklarni markaziy ko'chalardagi pannolarga joylashtirish hamda LED ekranlar orqali namoyish etish, tadbirlar o'tkaziladigan joylarni ona tilimizni ulug'lovchi ko'rgazmali tasviriy vositalar bilan bezash choralari ko'rsin.

6. Barcha davlat organlari va tashkilotlari o'z tizimida O'zbek tili bayrami kunini nishonlash bo'yicha madaniy-ma'rifiy tadbirlar, taniqli olimlar, til sohasining mutaxassislari, davlat va jamoat arboblari, yozuvchi va shoirlar bilan uchrashuvlar, "ommaviy diktant" kabi aksiyalar hamda bayramga bag'ishlangan boshqa tadbirlarni tashkil qilsin.

7. Qarshi shahar hokimligi (N.Xolboyev), Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi (K.Karomova), viloyat madaniyat boshqarmasi (I.To'rayev), viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (U.Oripov), Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi (G'.Abdiyev), viloyat oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (O.Movlanov), Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (A.Ahmedov) 2025-yil 21-oktabr kuni O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Abdulla Oripovning Qarshi shahridagi haykali poyiga gul qo'yish marosimini hamda ushbu haykal o'rnatilgan maydonda hamda tashkiliy qo'mita tomonidan belgilangan joyda viloyatning asosiy bayram tadbirlarini yuqori saviyada uyushtirish choralari ko'rsin.

8. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (O.Movlanov) Oliy ta'lim muassasalarida 2025-yil 21-oktabr kuni o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 36 yilligi hamda O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy tadbirlar o'tkazilishini ta'minlasin.

9. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi (K.Karomova), Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (A.Ahmedov) bayram tabriknomalari (stikerlar) tayyorlasin hamda ularni ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqatish choralari ko'rsin.

10. Viloyatdagi milliy madaniyat markazlariga:

bayram arafasida ijtimoiy tarmoqlarda o'zga tilli vatandoshlarimizning o'zbek tilida tabriklarini;

“O'zbek tili barchamizni birlashtiradi” shiori ostida viloyatimizda istiqomat qilayotgan barcha millatlar va elatlar vakillari ishtirokida turli madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish tavsiya etilsin.

11. Barcha viloyat boshqarma, idora va tashkilotlari rahbarlari hamda shahar va tumanlar hokimlari ommaviy axborot vositalari, o'z rasmiy saytlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali xalqimizni va xodimlarini O'zbek tili bayrami kuni bilan tabriklasin.

12. Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (A.Ahmedov), **viloyat madaniyat boshqarmasi** (I.To'rayev), **Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi** (G'.Abdiyev), **Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi** (K.Karomova):

“Ona tilim - faxrim” shiori ostida til bayramiga bag'ishlangan adabiy-badiiy kecha hamda yangi kitoblar taqdimotini o'tkazsin;

#ona_tilim_faxrim kalit so'zi ostida o'zbek tilini ulug'lovchi jonli ijrodagi qo'shiqlar, she'rlar, hikmatli so'zlar, maqollar, qisqa hikoyalarning ommaviy tarzda joylashtirilishini tashkil etsin.

13. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (O.Movlanov) **Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi** (G'.Abdiyev), **viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi** (U.Oripov), **Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi** (A.Ahmedov) bilan birgalikda **O'zbek tili bayrami kuni** arafasida ta'lim muassasalarida “**Ommaviy diktant**” aksiyasini o'tkazish choralari ko'rsin.

14. Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (U.Oripov) **Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi** (K.Karomova), **Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi** (G'.Abdiyev) bilan birgalikda maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablari, Prezident maktablari, ijod maktablari va ixtisoslashgan maktablarda O'zbek tili bayrami kunini nishonlash bo'yicha namunaviy senariylarni puxta ishlab chiqsin hamda ular asosida ta'lim muassasalarida bayram tadbirlari yuqori saviyada o'tkazilishini ta'minlasin.

15. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (O.Movlanov), **viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi** (U.Oripov) viloyatdagi barcha ta'lim muassasalarida yozuvchi, shoirlar bilan uchrashuvlar va boshqa turli badiiy kechalar o'tkazish, o'quvchilar va talabalar o'rtasida insho, bayon va diktantlar yozdirish, turli tanlovlarni tashkil etish choralari ko'rsin.

16. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A.Ismoilov), **Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi** (U.Azimov), **viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi** (F.Mirzayev) bayram doirasida o'kaziladigan tadbirlar davomida Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 205-son qarori

talablariga qat'iy rioya qilgan holda jamoat tartibini saqlash, yo'l harakati va yong'in xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rsin.

17. Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi (N.Qurbonov) bayram doirasida o'tkaziladigan tadbirlar davomida tez tibbiy yordam xizmati yo'lga qo'yilishini tashkil etsin hamda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya qilinishi ustidan belgilangan tartibda nazorat o'rnatish.

18. Viloyat hokimligi axborot xizmati (A.Sodiqov), **viloyat teleradiokanali** (J.To'ychiyev), **"Qashqadaryo"** va **"Новости Кашкадарьи"** gazetalari tahririyati (K.Karimov)ga:

O'zbek tili bayrami doirasidagi tadbirlarni keng yoritish;

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi (K.Karomova), **Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi** (O.Movlanov) bilan birgalikda bayram arafasida va bayram kuni xorijiy davlatlarning mamlakatimizdagi chet ellik mutaxassislari, talabalar, sayyohlarning o'zbek tilidagi bayram tabriklarini teleradiokanallarda va ijtimoiy tarmoqlarda berib borish tavsiya etilsin.

19. Bayram doirasidagi barcha tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish bo'yicha mas'uliyat shahar va tumanlar hokimlari zimmasiga yuklatilsin.

20. Ushbu bayonda belgilangan vazifalar ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosarlari A.Qobilov, A.Zakirov, viloyat hokimining maslahatchisi N.Egamov zimmasiga yuklansin.

Bayonnomani rasmiylashtiruvchi

N.Egamov

Viloyat hokimligining
2025-yil ____-oktabrdagi
_____-son yig'ilish bayoniga
1-ilova

**O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 36 yilligi hamda
21-oktabr – O'zbek tili bayrami kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni
o'tkazish bo'yicha viloyat tashkiliy qo'mitasining tarkibi**

1.	A.Qobilov	- viloyat hokimining o'rinbosari, <i>tashkiliy qo'mita rahbari</i>
2.	A.Zakirov	- viloyat hokimining o'rinbosari, <i>tashkiliy qo'mita rahbari o'rinbosari</i>
3.	N.Egamov	- viloyat hokimining davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchisi
4.	A.Sodiqov	- viloyat hokimining matbuot kotibi
5.	N.Xolboyev	- Qarshi shahar hokimi
6.	I.To'rayev	- viloyat madaniyat boshqarmasi boshlig'i
7.	O.Movlanov	- viloyat oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i
8.	D.Nabiyev	- Qarshi davlat universiteti rektori
9.	U.Oripov	- viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i
10.	K.Karomova	- Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi rahbari
11.	A.Ahmedov	- Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i
12.	S.Aripov	Raqamli texnologiyalar vazirligining viloyat shu'basi rahbari
13.	J.To'ychiyev	- viloyat teleradiokanalip direktori
14.	G'.Abdiyev	- Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi rahbari
15.	V.Ro'ziyev	- viloyat sport boshqarmasi boshlig'i
16.	N.Qurbonov	- viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i v.b.
17.	K.Karimov	- "Qashqadaryo" va "Новости Кашкадарьи" gazetalari tahririyati bosh muharriri
18.	E.Tursaxatov	- Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi viloyat bo'linmasi rahbari
19.	Lavozimiga ko'ra	- shahar va tumanlar hokimlarining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha o'rinbosarlari, davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchilari.